

**PEDAGOGIKANING INSON VA UNING SHAXSINI  
SHAKLLANTIRADIGAN O'RNI**

*Milnorov Xusniddin Xushmatovich*

[\*husniddin2018@mail.ru\*](mailto:husniddin2018@mail.ru)

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi assistent  
o'qituvchisi*

*G'aybullayeva Zarnigor Farhod qizi*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti pedagogika yo'nalishi 1-22-guruh  
talabasi*

**ANNOTATSIYA.** *Pedagogika-bu atama yunoncha so'zdan olingan bo'lib, „Bola yetaklovchi“ degan ma'noni bildiradi. Pedagogika fan sifatida bola tarbiyasining nazariy asoslarini o'rganuvchi fan. Pedagogikaning bosh ob'ekti-shaxs hisoblanadi. Pedagogika-ta'lim va tarbiya asosida bolalarni o'qitadigan fanlar majmuasi. Pedagogika inson shaxsini shakllantirishga doir fan sifatida falsafa, etika, estetika, madaniyatshunoslik, psixologiya, iqtisodiyot kabi fanlar bilan bog'liq.*

**ABSTRACT.** *Pedagogy is a term derived from the Greek word meaning „Child leader“. Pedagogy as a science is a science that studies the theoretical foundations of child education. The main object of pedagogy is the person. Pedagogy is a complex of subjects that teach children based on education and upbringing. Pedagogy as a science related to the formation of human personality is related to such sciences as philosophy, ethics, aesthetics, cultural studies, psychology, economics.*

**Kalit so'zlar:** *Pedagogika, ta'lim, tarbiya, oila, jamiyat, tadris, falsafa, psixologiya, metodlar, antik davr, milliy ong.*

**Key words:** *Pedagogy, education, upbringing, family, society, teaching, philosophy, psychology, methods, antiquity, national consciousness.*

Pedagogika-yunoncha so'zdan olingan bo'lib „Bola yetaklovchi“ degan ma'noni bildiradi. Pedagogika bu qadimdan beri mavjud bo'lgan fanlardandir. Tarixiy manbalarda bu fan bola yig'isi mavjud bo'lgandan beri bor ekanligidan guvoh beradi. Bu fanni o'rgatuvchilar esa pedagog deb ataladi. Pedagog tarbiya jarayonining qonuniyatlari, tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etadi, tarbiyaviy va o'quv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakli, usul hamda yo'sinlarini belgilab beradi.

Pedagogikada shaxs nafaqat tarbiyalanadi balki o'qitiladi ham. Bunda pedagogning o'zi mustaqil ravishda faoliyat olib bormaydi balki oila, mahalla, tashqi muhit bilan birgalikda faoliyat olib boradi. Xalqimizda shunday bir maqol bor „Bir bolaga qirq mahalla ota-ona“ degan. Pedagog bolaning ijtimoiylashuviga yordam beruvchi shaxs hisoblanadi. Tarbiyachi amaldor emas, agar amaldor bo'lsa, u tarbiyachi emas deydi USHINSKIY. Tarbiya jarayonida avvalambor pedagogning o'zi bolalarga o'rnak bo'la olishi kerak. Bu borada PISAROV o'zining fikrini quyidagicha izohlagan; Tarbiyada hamma narsa tarbiyachining kimligiga bog'liq deydi. Inson va uning shaxsini shakllantirishga doir bir qancha fanlar bilan pedagogika bog'liq hisoblanadi chunki ta'lim jarayonida bevosita bir yoqlama bo'la olmaydi. Bu qaysi fanlar bilan bog'liq deganda falsafa, psixologiya, iqtisodiyot, tarix, adabiyot, siyosatshunoslik kabi fanlar bilan bog'liqdir. Bunda pedagogika bu fanlarning ilmiy tadqiqotlari, nazariy asoslari, tadqiqot metodlarini, ilmiy xulosalarini o'rganadi, taxlil qiladi va umumlashtiradi. Pedagogikada ta'lim va tarbiya berish jarayonida shaxsning Yoshi albatta inobatga olinishi zarur. Bu jarayonlarning tashkiliy-pedagogik asoslarini pedagogikaning maktabshunoslik deb nomlangan sohasi o'rganadi. Ayrim o'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlari va usullarini o'rgatuvchi tadrish fanlari ham pedagogikaning sohalari hisoblanadi. Bularga nisbatan didaktika umumiy metodika hisoblanadi va har bir alohida predmeti metodikasi xususiy didaktika sanaladi. Pedagogika o'quvchilarning jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan yoki bo'lmaganligiga qarab o'rganadigan sohasi defektologiyadir. Defektologiyaning o'zi ham bolaning qanday jismoniy nuqsonlarga egaligi hamda ularga beriladigan ta'lim tarbiyaning

yo'naltirilganligiga qarab bir qancha turlarga bo'linadi; Tiflopedagogika, Surdopedagogika, Oligofrenopedagogika, Logopediya kabi turlarga bo'linadi

Pedagogikaning yana bir sohalaridan biri bu qiyosiy pedagogikadir; bu fan XX asrning boshlaridan pedagogikaning alohida tarmog'i sifatida dunyoga keldi. Unda jahondagi turli xalqlarning pedagogik qarashlari bir-biriga solishtirilgan holda o'rganiladi. Jahonda qiyosiy pedagogika mustaqil fan sifatida shakllangan bo'lsada O'zbekistonda bu fan hali mustaqil shakllanmagan. Ammo bugungi kunda O'zbekistonda ham izlanishlar olib boriulmoqda bu sohada.

Pedagogikaning yana bir sohalaridan biri bu ijtimoiy pedagogika hisoblanadi. Ijtimoiy pedagogika pedagogikaning bir sohasi sifatida ijtimoiy tarbiya muammosini o'rganadi, kishilar jamoasi hamda alohida shaxslarga ta'lim tarbiya jarayonidagi ijtimoiy muammolar, ularning kelib chiqish sabablari hamda bu muammolarning bartaraf etilishining nazariy va amaliy jihatlarini o'rganadi.

Pedagogikaning navbatdagi sohalaridan biri bu xalq pedagogikasidir. Sof amaliy xarakterga ega bo'lgan va insoniyat ko'p yillar mobaynida orttirgan hayotiy tajribalarni yoshlarga qisqa muddatda o'rgatishni ko'zda tutuvchi fanga aytiladi. Bu fan udum, odat, an'ana tarzida namoyon bo'lganligi uchun ham xalq pedagogikasi nomini olgan. CHunonchi ota bilan masala talashilmaydi, kichik yoshdagilar kattalardan oldin taomga qo'l uzatmaydi, ko'rishish uchun oldin kattalar qo'l cho'zishi kabi insonlarning hayotiy va aqliy tajribasi ortib, turmush kechirish tarsi xilma-xillashib, mehnat taqsimoti yuzaga kelib turli fanlar paydo bo'la boshlashi bilan xalq pedagogikasi pedagogikaning alohida sohasiga aylandi. Bu fan shuningdek antik davrdagi mutaffakkirlarning ta'lim va tarbiyadagi qarashlarini o'rganuvchi sohaga kiradi.

Shu jumladan Farobiy ham o'zining qarashlarida ta'lim-tarbiyani uzviy birlikda olib boorish haqida ta'lim bergan bo'lsa ham, ammo har birining insonni kamolga yetkazishda o'z o'rni va xususiyati bor ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Farobiy „Baxt-saodatga erishuv to'g'risida“ asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning ta'kidlashicha, avval bilish zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu-olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy

jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o'rganish lozim. Undan so'ng, umuman, jonli tabiat o'simlik va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi, deydi.

Bundan ko'rinib turibdiki antik davr mutaffakkirlari va sharq allomalari o'zlarining fikrlarining markazida yetuk insonni shakllantirish istagi borligi yaqqol ko'rinib turibdi.

O'zbek pedagogikasi juda katta tarixga egadir. Uning ildizlari Avesto, O'rxun-enasoy bitiklari, selung'ur madaniyatiga borib taqaladi. Milliy pedagogikaning taraqqiyotida islom dini va tasavvuf ta'limoti hal qiluvchi o'rin tutadi. Chunki „Qur'oni-Karim“, hadisi sharif va tasavvuf ta'limotining markazida axloq, komil inson ma'naviyatini shakllantirish turardi. 17-asrdan boshlab, milliy pedagogikada ta'lim-tarbiyaning mohiyatiga emas, balki tashqi jihatlariga e'tibor kuchaydi, turmush talablarini hisobga olmay, hayotiy zamindan uzilish sodir bo'ldi. Natijada, jamiyat taraqqiyoti susaydi, ijtimoiy-siyosiy hayotda ham tanazzulga yuz tutildi. pedagogikadagi biqlik, biryozlamalilik kishilar ruhiyatiga ko'chdi, undan ijtimoiy tartibotlar va siyosiy qurilmalarga o'tdi. Butun bir davlat xonliklarga bo'linib ketdi. Xonliklarning har birining ichida biri-biri bilan kelishmovchilik hamda o'zaro janjallar avj oldi. Negaki, jamiyat va unda yashaydigan insonlarning ma'naviy o'maklari puxta tayin etilmagan edi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi natijasida milliy ong bo'g'uvchan, mafkuraviy qolipdan, buyruqqa muvofiq fikrlash zug'umidan qutuldi. Bu hol pedagogikaning sog'lom aql, milliy ruhiyat va an'analarga moye tarzda yo'lga qo'yilishiga imkon yaratdi. Bugungi o'zbek pedagogikasi millat ruhiyatidagi noziik jihatlarni hisobga olgan va dunyo tarbiyashunosligidagi eng so'nggi yutuqlarga tayangan holda taraqqiy etmoqda. Zamonaviy o'zbek pedagogikasida barkamol insonni shakllantirish rasmiy ravishda bosh maqsad qilib belgilangan. Bu pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchi va tarbiyalanuvchilarning faol ishtirok etishlarini ko'zda tutadi.

Birinchi prezidentimiz ISLOM ABDUG'ANIYEVICH KARIMOV o'zining asarlarida barkamol avlod tarbiyasida pedagoglarning o'rni va tarbiyaning ahamiyati haqida alohida to'xtalib o'tadi. Jumladan o'zining bir farmoyishida

quyidagi jummalarni aytib o'tadi; Mamlakatimizda sog'lom va uyg'un kamol topgan avlodni tarbiyalash uchun zarur imkoniyatlar hamda shart-sharoitlarni yaratish, XXI asr intellektual qadryatlar ustuvorlik qiladigan asr ekanligini e'tiborga olgan holda vatanimiz yigit va qizlarini har tomonlama barkamol shaxslar etib shakllantirish borasidagi keng ko'lamli chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish maqsadida va 2010-yili O'zbekiston respublikasida "Barkamolavlod yili" deb e'lon qilindi. Shu va amalga oshirilgan boshqa tadbirlar bu pedagogika sohasining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shib kelmoqda.

Islom Karimov ta'kidlaganlaridek ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi, erkin shaxsning shakllanishiga olib keladi. O'zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniyatiga ega bo'lamiz deya ta'kidlaydi.

Biz bugungi pedagogik sohaning rivojlanishiga e'tibor qaratarkan biz bolalar, yoshlar pedagogik jarayonning ob'yektigina emas, balki sub'yekti, ya'ni ijrochisi ham ekanligiga alohida e'tibor qaratishimiz lozim. Ayni vaqtda barcha pedagogik tadbirlar ta'lim-tarbiya oluvchilarning mustaqil fikrlashlarini ta'minlash, ularda tarbiyalanish va o'qishga ehtiyoj uyg'otishga yo'naltirilgan holda tashkil etilmoqda.

Bugungi o'zbek pedagogikasi uchun muayyan bilimlar yig'indisi emas, balki bola shaxsi bosh qadryatga aylangan. SHuning uchun ham milliy pedagogikada faqat bilimli o'quvchilar tayyorlashga emas, balki izlanuvchan, tashabbuskor shaxsni shakllantirishga asosiy e'tibor berilmoqda.

Bugungi kunda ham pedagogika sohasining rivojlanishi uchun bir qancha zamonaviy olimlar ijod qilib kelmoqdalar. Bularga E. Qodirov, S. Dolimov, Q. Axmedovsingari olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar pedagogika sohasining rivojlanishiga hissa qo'shib kelmoqda.

## **XULOSA**

Bugungi maqoladan shuni xulosa qilish mumkinki pedagogika sohasi bu qadimiy va hozirgi kunda rivojlanib kelayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Bu sohada ta'lim va tarbiya muammolari tadqiq etilib o'rganilib boriladi. SHaxsning

rivojlanishida to'g'ri yo'nalish beradigan sohalardan ekanligini anglashimiz mumkin.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. ISLOM KARIMOV „YUKSAK MA'NAVIYAT-YENGILMAS KUCH“ ISBN 978-9943-04-075-5 Toshkent „Ma'naviyat“ 2008

2. Милиноров, Хусниддин Хушматович, and П. М. Жалолова. "ПРОЦЕСС ОРГАНИЗАЦИИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ." Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies. Vol. 3. No. 5. 2024.

3. Xusniddin, Milinorov, and Mavlonova Malika. "Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasi." Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi 7.4 (2024): 296-304.

4. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "Pedagogik faoliyat jarayonida bo'lajak pedagoglarni raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish." Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi 7.4 (2024): 305-312.

5. Khaidarov S. MOTIVATION OF PEDAGOGICAL BACHELORATE GRADUATES FOR PROFESSIONAL TEACHING ACTIVITIES //Science and innovation. – 2023. – T. 2. – №. B12. – С. 892-895.

6. Хайдаров, Шавкат. "Роль этнопедагогике в узбекском народном традиции." Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi 7.4 (2024): 286-291.

7. Sokhibov, A. R. "Mechanisms to improve the quality of education in the primary school of non-state educational institutions." (2022).

8. Rustamovich, Sohivov Akram. "Using A Modular Approach in the Credit System of Education." Academia Globe 2.6 (2021): 391-394.

9. Sokhibov, A. R. "SPIRITUAL AND MORAL TREASURES OF THE GREAT THINKERS OF THE EAST." Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал 1 (2020).

10. Сохибов, Акрам Рустамович. "ТИПЫ И ЭТАПЫ РЕШЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ЗАДАЧИ." Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов 3 (2015): 102-104.
11. Khaydarov Shavkat Khuzhaniyozov Bakhrom. "On The Importance Of Ethnopedagogical Traditions In The Uzbek People" 2. 2024/5:c 210-214.
12. Sokhibov, Akmal. "Economic and Political Restraints for Reducing the Drug Economy in Afghanistan." Sicherheit und Frieden (S+ F)/Security and Peace (2014): 193-200.
13. СОХИБОВ, Акрам. "ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕХАНИЗМОВ ПРИМЕНЕНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ." EDAGOGIK ANORAT: 27.
14. Ochilova, N., and Bahrom Xo'janiyozov. "TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O'RNI." Results of National Scientific Research International Journal 1.7 (2022): 339-343.
15. HJANIYOZEV, B. "ORGANIZATION OF THE FORMATION OF HISTORICAL THINKING OF SCHOOLCHILDREN IN AN EDUCATIONAL ORGANIZATION." Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi 7.4 (2024): 292-295.